

# ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

YANVAR

ANDIJON, 2025

## JAMIYATNI RIVOJLANISHIDA JAMOATCHILIK FIKRI VA JAMOATCHILIK NAZORATINING AHAMIYATI

Saribayeva Nigargul Bauetdinovna

Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotekhnologiyalar instituti Gumanitar fanlar va tillar kafedrasi assistenti

[nigargulsaribaeva@gmail.com](mailto:nigargulsaribaeva@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mamlakatimizda jamoatchilik fikri va jamoatchilik nazoratining ahamiyati, uning zamonaviy jamiyat rivojlanishidagi ahamiyati, shuningdek, jamoatchilik fikrining muhimligi, jamoatchilik nazoratini olib borishning jamiyat rivojlanishiga ta'siri haqida batafsil tahlil qilinadi.

**Kaliz so'z:** Davlat, jamoatchilik fikri, jamoatchilik nazorati, jamiyat, adolat, fuqarolik jamiyat, rivojlanish.

**Annotation:** This article analyzes the importance of public opinion and public oversight in our country, their significance in the development of modern society, as well as the importance of public opinion and the impact of public oversight on the progress of society.

**Keywords:** State, public opinion, public oversight, society, justice, civil society, development.

**Аннотация:** В данной статье анализируется важность общественного мнения и общественного контроля в нашей стране, их значение для развития современного общества, а также значимость общественного мнения и влияние общественного контроля на прогресс общества.

**Ключевые слова:** Государство, общественное мнение, общественный контроль, общество, справедливость, гражданское общество, развитие.

Jamiyatning taraqqiy etishi bevosita unda yashayotgan insonlarning faolligi, o'zaro hamkorligi va ular tomonidan shakllantiriladigan jamoatchilik fikri bilan bog'liqdir. Jamoatchilik fikri insonlarning ijtimoiy muammolar va masalalar yuzasidan o'z qarashlarini ochiq ifoda etish imkoniyatidir. Bu fikr jamiyatda ijtimoiy muvozanatni saqlash,adolatni ta'minlash va davlat boshqaruvini samarali amalga oshirish uchun asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Jamoatchilik fikrining ahmiyati – jamiyatning turli qatlamlari va guruhalining ovozi bo'lib, ularning manfaatlarini aks ettiradi. Chunki jamoaning fikrini o'rganish hamda mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan muammolarning hal etilishida muhum ahmiyat kasb etadi. Bu esa jamoatchilik fikrini chuqur anglashni taqazo etadi. Jamoat fikrini o'rganish bir tomonidan davlat va jamiyat tuzilmalarini demokratiya tamoyillariga nechog'li asoslanishiga, ikkinchi tomonidan esa mavjud empirik manbalarni ilmiy mushohadalash nazariy qayta ishslash, sintezlash holatlariga bevosita bog'liq holda shakllanadi. Ana shu ikki jihatlardan birortasi bo'lmasa jamoatchilik fikrini o'rganish ham uni tadqiq etish va shakllantirish ham samarali kechmaydi. Zamonaviy jamiyatda jamoatchilik fikrining ijtimoiy ahmiyati yanada muhim ahmiyat kasb eta boshladi. Uning amaliy faoliyat sarhadlari kengayib, jamiyat hayotiga ko'rsatadigan ta'sir ko'lamlari keskin orta boshladi.

Jamoatchilik fikrining ahmiyatini biz quyidagi sabablarga ko'ra muhim deb o'ylaymiz:

- Ijtimoiy muammolarni aniqlashda yordam beradi – jamoatchilik fikri orqali davlat hokimiyati va boshqa tashkilotlar jamiyatda mavjud bo'lgan muammolar haqida xabardor bo'lishadi. Masalan, ta'lim, sog'liqni saqlash yoki atrof-muhitni muhofaza qilish bilan bog'liq masalalar jamoatchilik fikri orqali dolzarblikka erishadi;
- Qonunchilik va boshqaruvga ta'sir ko'rsatadi – jamoatchilik fikri davlat organlarini mas'uliyatlari ishslashga undaydi va ularning qaror qabul qilishlariga katta ta'sir etadi. Ommaviy e'tirozlar yoki qo'llab-quvvatlash harakatlari bu jarayonning yorqin ko'rinishidir.

# ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

YANVAR

ANDIJON, 2025

Masalan, ekologik muammolar yoki inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha tashabbuslar jamoatchilik fikri natijasida amalga oshiriladi;

- Adolat va shaffoflikni ta'minlaydi – ochiq fikr almashinuvi va erkin ommaviy axborot vositalari davlat boshqaruvining shaffofligini oshiradi va korrupsiya kabi salbiy holatlarga qarshi kurashda samarali vosita bo'ladi. Bu esa jamiyatda ishonch muhitini mustahkamlashi bilan birga jamiyatni rivojlanishi hamda taraqqiy etishiga o'z hissasini qo'shadi.

Jamoatchilik nazorati – fuqarolar va jamoat tashkilotlarining davlat organlari, mahalliy hokimiyatlar hamda boshqa ijtimoiy muassasalar faoliyati ustidan ochiq va mustaqil nazorat olib borish jarayonidir. Bu nazorat jamiyatni barqaror rivojlantirish, davlat boshqaruvi shaffofligini ta'minlash va fuqarolarning manfaatlarini himoya qilish uchun muhim vosita hisoblanadi. Jamoatchilik nazorati fuqarolarning davlat va jamoat ishlarida faol ishtirok etish imkoniyatini ifodalaydi. U jamiyat hayotining barcha sohalarida muhim o'rinn tutadi. Ushbu nazorat shakllari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- Ommaviy axborot vositalari orqali nazorat – matbuot va internet jamiyatni ma'lumot bilan ta'minlab, fuqarolarni davlat organlari faoliyatini kuzatishga chorlaydi. Mustaqil jurnalistika va tahliliy dasturlar jamiyatdagi muammolarni yoritib, jamoatchilikning ongini oshiradi;
- Jamoat tashkilotlari va harakatlari – NNT va boshqa ijtimoiy guruhlar muhim masalalarda mustaqil monitoring olib boradi va o'z xulosalarini bildirishadi. Masalan, inson huquqlari bo'yicha tashkilotlar tomonidan olib boriladigan hisobotlar davlat va jamiyat o'rtasidagi aloqalarni kuchaytiradi.
- Ommaviy tadbirlar va so'rovnomalar – ochiq yig'ilishlar, munozaralar va referendumlar fuqarolarning o'z fikrlarini ifoda etishiga imkon beradi. Ushbu jarayon orqali xalqning talablari va takliflari aniqlanadi.

Jamoatchilik nazorati har qanday demokratik jamiyatning ajralmas qismi bo'lib, davlat boshqaruvini shaffof va samarali qilishda muhim o'rinn tutadi. Ushbu nazorat davlat organlari, mahalliy boshqaruv va boshqa ijtimoiy tashkilotlarning faoliyatini kuzatish orqali fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi. Quyida jamoatchilik nazoratining asosiy ahamiyati to'xtalib o'tamiz:

- Shaffoflikni ta'minlash – jamoatchilik nazorati orqali davlat organlari va ularning vakillari faoliyatini kuzatish imkoniyati yaratiladi. Bu davlat boshqaruvidagi yashirinlikni kamaytirib, fuqarolar uchun muhim bo'lgan ma'lumotlarni ochiqlashga yordam beradi. Natijada, davlat va jamiyat o'rtasida ishonch mustahkamlanadi;
- Davlat organlarining mas'uliyatini oshirish – jamoatchilik nazorati davlat xizmatchilari va rahbarlarini o'z faoliyatiga mas'uliyat bilan yondashishga undaydi. Fuqarolarning e'tiborida bo'lgan davlat vakillari o'z vazifalarini bajarishda ehtiyojkorlik bilan yondashadi, bu esa boshqaruv samaradorligini oshiradi;
- Korruptsiya va huquqburzarliklarning oldini olish – nazorat davlat boshqaruv tizimida noqonuniy harakatlarning, jumladan, korruptsiyaning oldini olishga xizmat qiladi. Fuqarolar va jamoatchilik tashkilotlari tomonidan o'tkaziladigan monitoring orqali qonunburzarliklar tezda aniqlanadi va muammolar bartaraf etiladi;
- Fuqarolarning faolligini oshirish – jamoatchilik nazorati fuqarolarni jamiyat hayotida faolroq ishtirok etishga undaydi. Bu jarayonda odamlar o'z huquq va majburiyatlarini yaxshiroq anglaydi hamda davlat organlariga nisbatan konstruktiv taklif va talablar bildiradi;
- Adolat va tenglikni ta'minlash – jamoatchilik nazorati orqali davlat boshqaruvining barcha qatlamlarida adolatni ta'minlash mumkin. Har bir fuqaro o'z fikrini bildirish va manfaatlarini himoya qilish imkoniga ega bo'lganda, jamiyatda tenglik hissi kuchayadi;
- Ijtimoiy muammolarni samarali hal qilish – nazorat jamiyatdagi dolzARB muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etishda yordam beradi. Masalan, sog'liqni saqlash, ta'lim, ekologiya

# ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

**YANVAR**

**ANDIJON,2025**

yoki shahar infratuzilmasi bilan bog'liq masalalarini jamoatchilik nazorati yordamida tezroq aniqlash va samarali choralar ko'rish mumkin;

○ Barqaror rivojlanishga ko'maklashish – barqaror rivojlanish uchun jamiyatdagi barcha qatlamlarning manfaatlari hisobga olinishi lozim. Jamoatchilik nazorati bu jarayonda muvozanatni ta'minlab, qarorlar qabul qilishda fuqarolarning fikr-mulohazalarini inobatga olishga xizmat qiladi.

Jamoatchilik fikri va jamoatchilik nazoratining rivojlanishi jamiyatda ochiqlik va mas'uliyat hissini oshiradi. Bu esa o'z navbatida qonunbuzarliklarning oldini olish, davlat organlari va rahbarlarining samaradorligini oshirish va ijtimoiy adolat va barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, jamoatchilik fikri ijtimoiy ongning muayyan holati sifatida keng xalq ommasining alohida shaxslar, guruhlar va real borliq voqeа hodisalarga nisbatan munosabatni bildiruvchi nuqtai-nazaridir.

Jamoatchilik nazorati jamiyat va davlat o'rtasidagi muloqotni rivojlantiradi, ishonchni mustahkamlaydi va boshqaruв tizimining samaradorligini oshiradi. Bu nazoratning samarali ishlashi uchun fuqarolarning huquqiy savodxonligini oshirish, ommaviy axborot vositalarining erkinligini ta'minlash va nodavlat tashkilotlarni qo'llab-quvvatlash lozim. Shu orqali jamiyatda adolat, tenglik va rivojlanishning bardavomligi ta'minlanadi.

Kelajakda jamoatchilik fikri va jamoatchilik nazoratini yanada rivojlantirish uchun quyidagi choralar ko'riliши lozim:

1. Ommaviy axborot vositalarining yanada mustaqilligini ta'minlash va ularni barcha sohalarda qo'llab-quvvatlash;
2. Fuqarolarning huquqiy savodxonligini oshirish va ular uchun ta'lim dasturlarini kengaytirish;
3. Ijtimoiy tarmoqlar va raqamli platformalar orqali aholi bilan samarali muloqotni yo'lga qo'yish.

Yakunida ta'kidlash kerakki, jamoatchilik fikri va jamoatchilik nazoratini rivojlantirish fuqarolik jamiyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Har bir fuqaro ushbu jarayonlarda ishtirok etgan holda jamiyatning rivojlanishiga hissa qo'shishi mumkin.

Yuqoridagilardan shunday xulosa qilish mumkinki, jamiyat va shaxs o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy mexanizmlardan biri bo'lgan davlat nazorati mamlakatning barqaror rivojlanishida muhim o'rinn tutadi. Shu bilan birga, jamiyat, uning fuqarolik institutlari va barcha fuqarolar davlat va hokimiyat faoliyatini jamoatchilik nazorati orqali, mavjud ijtimoiy normalar, qadriyatlar, huquqiy normalardan foydalangan holda nazorat qiladi. Jamoat tashkilotlari davlat hokimiyyati organlari bilan birgalikda davlat hokimiyyati va boshqaruvi organlari faoliyati ustidan nazoratni, zarur hollarda esa jamoatchilik nazoratini amalga oshirishi mumkin.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Zoirova M.N. (2021). Jamoatchilik nazoratida ommaviy axborot vositalarining rolini oshirish mexanizmlari. nomzod...dis.avtoref. – Toshkent.
2. Jahonov Sh.Sh. (2022). Jamoatchilik nazoratini amalga oshirishda elektron ommaviy axborot vositalari ishtirokining tashkiliy-huquqiy asoslari. "O'zbekiston va BMT: o'zaro hamkorlik va barqaror taraqqiyot" Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – T.: Yuristlar malakasini oshirish markazi;
3. T.Do'stjonov. S Hasanov. (2004). O'zbekiston demokratik tarqqiёт yo'lida. – Toshkent: Toshkent Moliya institute.
4. Bekmurodov M. Jamoatchilik fikrini o'rganishning tarixiy ildizlari // O'zbekistonda jamoatchilik fikrini o'rganish metodikasi. – Toshkent, 2004. – B.94;
5. G'aniyeva M. Jamoatchilik fikri – Harakatlar strategiyasini amalga oshirishning muhim mexanizmi. // Ijtimoiy fikr-inson huquqlari. – Toshkent, 2017. № 3. OOO"ISHONCH". – B.